

ПАРТИСИПАТОРНОЕ БЮДЖЕТИРОВАНИЕ КАК ВИД СОВМЕСТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ



Юлдашева Надира Викторовна

доктор философии (PhD)

по экономическим наукам

доцент кафедры финансы

Ташкентский финансовый институт

E-mail: nadirak@mail.com

ORCID:0000-0002-5994-6787

Аннотация

В статье рассмотрена практика внедрения инициативного бюджетирования в Республике Узбекистан, в частности, рассмотрены институциональные, нормативно-правовые и финансовые механизмы внедрения и становления данного вида совместного финансирования программ социального-экономического развития регионов. Проведен анализ принятых и отклоненных проектов в разрезе регионов страны, сделаны выводы и приведены соответствующие предложения.

Ключевые слова: партисипаторное бюджетирование, инициативные граждане, правительство, бюджетный процесс, совместное финансирование, социальные проблемы, местная инфраструктура, прозрачность, открытость бюджетных данных, рабочая комиссия, модерация, проекты-победители.

ПАРТИСИПАТОР БЮДЖЕТЛАШТИРИШ ҲАМКОР МОЛИЯЛАШТИРИШ ТУРИ СИФАТИДА

Юлдашева Надира Викторовна

иқтисодиёт фанлари бўйича

фалсафа доктори (PhD),

молия кафедрасининг доценти

Тошкент молия институти

E-mail: nadirak@mail.com

ORCID:0000-0002-5994-6787

Аннотация

Мақолада Ўзбекистон Республикасида партисипатор бюджетлаштиришни жорий этиш амалиёти ёритилган, хусусан, республиканинг молиявий амалиётига қўшма бюджетлаштирининг ушбу

турини жорий этиш ва ташкил этишнинг институционал, ҳуқуқий ва молиявий механизмлари кўриб чиқилган. Ўзбекистон Республикаси ҳудудларида қабул қилинган ва рад этилган лойиҳалар таҳлил қилиниб, хулосалар чиқарилган ва тегишли таклифлар киритилган.

Калит сўзлар: партисипатор бюджетлаштириш, фаол фуқаролар, ҳукумат, бюджет жараёни, ҳамкор молиялаштириш, ижтимоий масалалар, маҳаллий инфратузилма, шаффофлик, бюджет маълумотларининг очиклиги, ишчи комиссия, модерация, ғолиб лойиҳалар.

PARTICIPANT BUDGETING AS A TYPE OF JOINT FINANCING

Yuldasheva Nadira Viktorovna

*Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic
Associate Professor of the
Department of Finance
Tashkent Institute of Finance
E-mail: nadirak@mail.com
ORCID:0000-0002-5994-6787*

Abstract

This article discusses the practice of introducing initiative budgeting in the Republic of Uzbekistan, in particular, considers the institutional, legal and financial mechanisms for introducing and establishing this type of joint budgeting in the current practice of the republic. An analysis was made on accepted and rejected projects in the context of the regions of the Republic of Uzbekistan, conclusions were drawn and relevant proposals were made.

Keywords: participatory budgeting, proactive citizens, government, budget process, co-financing, social issues, local infrastructure, transparency, budget data openness, working committee, moderation, winning projects.

Введение

В последние годы партисипаторное бюджетирование как вид совместного бюджетирования стал более распространенным и популярным явлением во всем мире в рамках планирования финансирования сектора государственного управления.

Партисипаторное бюджетирование представляет собой прямой демократический подход к составлению бюджета. Оно предлагает гражданам возможность получать сведения о деятельности правительства, а также принимать участие в обсуждении и влиять на распределении

государственных ресурсов. Это инструмент для обучения, привлечения и расширения прав и возможностей граждан и повышения спроса на надлежащее управление. Повышенная прозрачность и подотчетность, создающиеся партисипаторным бюджетированием, могут помочь сократить неэффективность экономических отношений, нейтрализовать клановое покровительство и коррупцию.

Первый эксперимент по партисипаторному бюджетированию был проведен в Порту-Алегри в Бразилии по инициативе Бразильской лейбористской партии в 1989 году. Эксперимент был признан успешным, и совместное бюджетирование было распространено на другие города Бразилии и Южной Америки. Кроме того, идею партисипаторного финансирования как вида совместного финансирования поддержали и другие международные финансовые организации [1]. Так Всемирный банк оказал поддержку ряду развивающихся стран в осуществлении проектов, направленных на улучшение управления.

Бюджетирование на основе участия граждан по своей сути тесно связано с целями в области устойчивого развития страны до 2030 года. Партисипаторное бюджетирование напрямую перекликается с призывом к инклюзивным институтам, выраженным в Целях устойчивого развития страны (сделать города и населенные пункты инклюзивными, безопасными, жизнестойкими и устойчивыми) и в связанных с ними задачах (обеспечение оперативного, инклюзивного, партисипаторного и репрезентативного принятия решений на всех уровнях).

Обращаясь к практике партисипаторного бюджетирования следовало бы отметить, что за годы реализации Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан были осуществлены широкомасштабные реформы в бюджетно-налоговой сфере, которые коснулись и механизмов внедрения инициативного бюджетирования.

Одним из важных экономических факторов является внедрение отдельных механизмов инициативного бюджетирования, кардинально изменившие механизмы взаимодействия государственных органов власти и граждан. В частности, был установлен порядок направления 10% (в дальнейшем 30%) средств от сверх прогнозных поступлений на финансирование инициатив граждан, а также запуск информационного портала «Открытый бюджет».

Обзор литературы

В последние годы вопросы партисипаторного или инициативного

бюджетирования оказываются в фокусе пристального внимания учёных и общественности, так как это оказывает положительное воздействие на решение многих социальных, экономических вопросов, что благоприятно сказывается на улучшении уровня жизни населения.

Проблемам инициативного бюджетирования посвящены работы видных зарубежных, в частности, латиноамериканских исследователей А. Маркетти, Б. Райтера, которые стоят у истоков теории инициативного бюджетирования.

Теоретические аспекты тождественности понятий «партисипаторное» и «инициативное бюджетирование» рассмотрены в трудах создателя и руководителя Центра инициативного бюджетирования НИФИ Министерства финансов Российской Федерации В. Вагина.

В научном труде Пола Сэмюэла «Аудит социальных изменений: изучение инициатив гражданского общества» исследуются проблемы влияния инициативного бюджетирования на социальные реформы [2]. Исследования Р. Форстера и Д. Сингха о роли влияния инициативного бюджетирования на социальное развитие были приведены в документе «Социальная ответственность: введение в концепцию и новую практику», изданного под эгидой Всемирного банка [3].

Р. Вивек и У. Крафчик в международном бюджетном проекте обосновывают теоретические основы эффективности роли гражданских инициатив в управлении государственными финансами [4].

В рамках проводимых научных исследований С. Чараса, рассматривается опыт инициативного бюджетирования в Таиланде, а также приводится сравнительный анализ положительных результатов инициативного бюджетирования [5].

Анализ и результаты

В настоящее время во многих странах реализуются проекты, отвечающие критериям инициативного бюджетирования, в частности, к ним относятся:

- участие граждан на всех этапах реализации проектов;
- участие представителей органов власти в обсуждении проектов;
- распределение средств муниципальных и государственных бюджетов;
- регулярность и ежегодная повторяемость проведения проектов
- открытость мероприятий и публичная отчетность реализации проектов.

Начатые процессы партисипаторного бюджетирования в республике стали активно расширяться с помощью введения новых финансовых механизмов их реализации, в частности, расширения финансовых источников финансирования инициатив, сформированных на основе общественного мнения.

Таблица 1.

Финансовые механизмы реализации процессов финансирования инициатив, сформированных на основе общественного мнения

<p>На основании Постановления Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2021 года, ПП- 5072 «О дополнительных мерах по обеспечению активного участия граждан в бюджетном процессе» с 2021 года перечисляться средства в инициативный бюджет</p>	<p>С 2022 года предусмотрено перечисление: за счёт направления 5 процентов утвержденных общих расходов бюджетов соответствующего района (города);</p>	<p>1 535 млрд сумов</p>
	<p>за счёт средств в размере не менее 30% от дополнительных источников районного(городского) бюджета.</p>	<p>518 млрд сумов</p>


***Источник:** Ташаббусли бюджет. 2022 йилда ўтказилган ташаббусли бюджет жараёни натижаларига кўра эришилган кўрсаткичлар ҳамда 2023 йилда кутилаётган ўзгаришлар юзасидан маълумотнома. Ташаббусли бюджет. 2022 йилда ўтказилган ташаббусли бюджет жараёни натижаларига кўра эришилган кўрсаткичлар ҳамда 2023 йилда кутилаётган ўзгаришлар юзасидан маълумотнома. – [https:// admin.openbudget.uz/media/post_attachments](https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments)

Анализ расходования целевых средств показывает существенное расхождение в объеме дополнительных ресурсов, формируемых в разрезе регионов (областей), а также в количестве предложений (голосов), поступающих из этих источников на финансовое обеспечение социально-экономических потребностей соответствующей территории. Так, сравнительно высоким был объем сформированных дополнительных источников доходов местных бюджетов Ташкентской, Наманганской, Андижанской, Самаркандской, Бухарской, Кашкадарьинской областей и города Ташкента, что напрямую связано с экономическим потенциалом регионов. Следует отметить, что сформированные дополнительные ресурсы местных бюджетов определяются по итогам каждого квартала и направляются на удовлетворение социально-экономических потребностей регионов. В связи с этим изучение объемов дополнительных источников и

предложений населения по использованию этих средств, формируемых по итогам каждого квартала, позволяет выявить тенденции их изменения в бюджетном процессе.

Диаграмма 1

Количество принятых и отклоненных проектов в рамках второго сезона 2022 года в разрезе регионов Республики Узбекистан*



*Источник: <https://openbudget.uz/ru/news>

За период с 2021 по 2022 год увеличиваются как абсолютные, так и относительные показатели принятых проектов, которые выросли соответственно с 56% до 61%, что свидетельствует о повышении роли участия граждан в бюджетном процессе.

По итогам второго сезона 2022 года на рассмотрение рабочей комиссии было представлено 61566 проектов, из которых после рассмотрения комиссией было принято 37655, отклонено 23911 проект, что составило 38.8% от всех поступивших.

Ниже в таблице приведены результаты отборочного этапа проектов в рамках второго сезона 2022 года (в разрезе регионов).

Таблица 2.
**Результаты отборочного этапа проектов в рамках второго сезона
2022 года (в разрезе регионов)***

№	Регионы (область, город)	Всего проектов	Принятые проекты	Уд. вес	Отклонённые проекты	Уд. вес
	Всего	61566	37655	61,2	23911	38,8
1.	Бухарская область	5069	3380	9,0	1689	33,3
2.	Республика Каракалпакстан	4432	3100	69,9	1332	30,1
3.	Сурхандарьинская область	13691	5721	41,8	7970	58,2
4.	Наманганская область	4063	3407	83,9	656	16,1
5.	Джизакская область	2476	1600	64,6	876	35,4
6.	Хорезмская область	5905	3996	67,7	1909	32,3
7.	Кашкадарьинская область	4865	3112	64,0	1753	36,0
8.	Навоийская область	2771	1607	58,0	1164	42,0
9.	Ташкентская область	2959	1950	65,9	1009	34,1
10.	Андижанская область	2417	1906	78,9	511	21,1
11.	Сырдарьинская область	1941	1020	52,6	921	47,4
12.	Ферганская область	3018	2694	89,3	324	10,7
13.	г. Ташкент	5071	2171	42,8	2900	57,2
14.	Самаркандская	2888	1991	68,9	897	31,1

*Источник: <https://openbudget.uz/ru/news>

В 2021 году в партисипаторном бюджетировании приняли участие 1.1 млн граждан, рассмотрены 41 100 проектов, из которых 23 000 отобраны рабочей комиссией.

По итогам обоих сезонов 2022 года в рамках инициативного бюджетирования поступило в общей сложности 131 266 предложений, из которых 77 946 участвовали на этапе голосований. При голосовании за было подано 14 541 308 голосов, победителями признаны 1 782 предложения.

В нижестоящей таблице в разрезе источников приведен объём выделенных средств на инициативное бюджетирование в Республике Узбекистан за 2021 -2022 год.

Таблица 3.

**Выделенные средства на инициативное
бюджетирование в 2021-2022 годах***

Вид средств	2021 г.	2022 г.	Рост (%)
Бюджетные средства (млрд сум)	208,0	1 955,0	939.9
Дополнительные средства (млрд сум)	322,0	555,0	172.4
Всего	530,0	2 510,0	473.6

*Источник: [https:// admin.openbudget.uz/media/post_attachment](https://admin.openbudget.uz/media/post_attachment)

Рассматривая источники финансирования мероприятий инициативного бюджетирования следовало бы отметить, что из выделенных в 2021 году средств 208 млрд сумов или 39.2% составили бюджетные средства и 322 млрд сумов – дополнительные средства. На 2022 год объём выделенных средств достиг 2 510 млрд сумов, из которых 1 955 млрд сумов или 77.9% составили бюджетные средства и 555 млрд сумов – дополнительные средства. Рассматривая в динамике инициативное бюджетирование можно сделать следующие выводы: за 2021-2022 годы объём выделенных средств в Республике Узбекистан вырос в 4.7 раза, причем за счёт бюджетных средств – в 9.4 раза, за счёт дополнительных средств увеличилось в 1.7 раза. Это связано с принятой на основе Постановления Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2021года №ПП-5072 «О дополнительных мерах по обеспечению активного участия граждан в бюджетном процессе» мер по совершенствованию действующего порядка, то есть направлению не 10%, а 30% дополнительных источников районных(городских) бюджетов, выделением с 1 января 2022 года средств в размере 5% утверждённых общих расходов соответствующих бюджетов по всем районам(городам) республики на инициативное бюджетирование и выделением средств [6,7].

В целях расширения масштабов решения насущных проблем, волнующих граждан на местах, начиная с 2023 года, 30% дополнительных средств республиканского бюджета Республики Каракалпакстан, бюджета областей и города Ташкента будут направлены на финансирование проектов, сформированных на основе районного и городского бюджетов, на практике – не менее 30% дополнительных средств районного и городского бюджетов. Определена адресность для инициативных бюджетных процессов [8].

Таким образом, вышеприведённые исследования свидетельствуют о широкомасштабных реформах и начале активных процессов партисипаторного бюджетирования в Республике, так как именно оно способствует целесообразности пересмотра бюджетных приоритетов для принятия решений, налаживанию диалога с местным населением по актуальным социальным, экономическим вопросам, обеспечению максимальной прозрачности финансирования каждого социального вопроса и достижению минимизации коррупции посредством общественного контроля при его реализации.

Заключение

Проведенное исследование внедрения инициативного бюджетирования позволило подчеркнуть его следующие положительные моменты, связанные с решением финансовых проблем:

Во-первых, совместное бюджетирование расширяет доступ к общественной деятельности по принятию решений. Публичные встречи и процессы принятия решений снижают вероятность того, что для распространения товаров будут использоваться открытые клиентелистские методы. Публичный характер собраний впервые дает возможность некоторым гражданам высказаться. Это общее ощущение расширения прав и возможностей еще больше усиливается, если граждане могут провести прямую связь между своими усилиями по участию и результатами политики.

Во-вторых, важным стимулом для граждан является то, что они получают доступ к информации. Информационные встречи дают гражданам более широкое представление о правительстве, его ответственности, политике. Программы партисипаторного бюджетирования предоставляют гражданам структуру для получения необходимой информации для лучшего понимания своей политической и административной среды. В дополнение к бюджетной информации граждане получают доступ к технической информации. Сложные наборы правил, связанные с этими вопросами, часто недоступны среднему гражданину. Программы партисипаторного бюджетирования дают гражданам возможность работать с государственными служащими в бюрократии для решения юридических и технических проблем.

В-третьих, преимуществом партисипаторного бюджетирования для граждан является прямая связь их участия и качества услуг, предоставляемых им. При партисипаторном бюджетировании граждане, вовлекаясь в социальную деятельность, формируют облик своего района. Они утверждают технические планы по установке канализационных систем или строительству

новых жилых домов, а также контролируют процесс осуществления проектов.

Участие в программах партисипаторного бюджетирования с течением времени имеет тенденцию к расширению. Причем значительные скачки часто происходят после третьего года. Процесс протекает быстрее, когда правительство оказывает значительную поддержку и выделяет ресурсы на цели партисипаторного бюджетирования. Граждане осознают, что существует прямая связь между временем, которое они посвящают составлению бюджета на основе участия, и изменениями в результатах политики. Изначально не участвовавшие субъекты вовлекаются в процесс, поскольку становится ясно, что основным способом обеспечения общественных работ или изменений в социальной политике является составление бюджета на основе их непосредственного участия.

Литература

1. Гаврилова Н. Практики партисипаторного бюджетирования в малых городах. Национальный исследовательский университет Высшей школы экономики. 2020. – <https://publications.hse.ru › view>

2. Сэмюэл П. Аудит социальных изменений: изучение инициатив гражданского общества. Документ, представленный на Шестом глобальном форуме по обновлению правительства, Сеул, 24–27 мая. 2005.

3. Форстер Р., и Сингх Д. Социальная ответственность: введение в концепцию и новую практику. Документ социального развития 76, Всемирный банк, Вашингтон, округ Колумбия. 2004.

4. Вивек Р., Крафчик У. Роль организаций гражданского общества в аудите и управлении государственными финансами. Международный бюджетный проект, Вашингтон, округ Колумбия. 2005.

5. С. Чарас. Гражданское участие в местных органах власти в Таиланде. Документ представлен на Международной конференции по привлечению сообществ, Брисбен, Квинсленд, Австралия, 14–17 августа 2005.

6. Постановление Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2021 года, ПП- 5072 «О дополнительных мерах по обеспечению активного участия граждан в бюджетном процессе». – <https://lex.uz/docs/5370822>

7. Постановление Президента Республики Узбекистан от 22 сентября 2021 года, ПП-5250 «О мерах по дальнейшему расширению финансирования мероприятий, сформированных на основе общественного мнения посредством информационного портала «Открытый бюджет». – <https://lex.uz/uz/docs/5651411>

8. Постановление Президента Республики Узбекистан от 25 октября 2022 года, ПП-409 «О мерах по расширению масштаба финансирования проектов, формируемых на основе общественного мнения». – <https://lex.uz/ru/docs/6251484>

ENERGETIKA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI



Fayziyev Samandar Sobri o'g'li

*korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar
kafedrasida tayanch doktoranti
Toshkent moliya instituti
E-mail: s.fayziyev1229@gmail.com
ORCID: 0009-0008-6669-2595*

Annotatsiya

Ushbu maqolada energetika sohasidagi loyihalarning moliyalashtirish holati va unda kuzatilayotgan muammolar, energetika sohasining rivojlanish jarayonlari, issiqlik, shamol hamda quyosh elektr stansiyalarning holati hamda ularning samarasi bo'yicha bir-biridan farqi, shu bilan birga muqobil moliyalashtirish yo'nalishlari, energetika sohasidagi infratuzilma loyihalarining moliyalashtirish va barqarorlikka erishish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xususiy sektor, moliyalashtirish, tabiiy energiya resurslari, energetika, energiya ta'minoti, iste'molchi, shamol elektr stansiyasi, issiqlik elektr stansiyasi, davlat xususiy sheriklik loyihalari.

ПРОБЛЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРОЕКТОВ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ

Файзиев Самандар Собри оглы

*базовый докторант кафедры
корпоративных финансов и ценных бумаг
Ташкентский финансовый институт
E-mail: s.fayziyev1229@gmail.com
ORCID: 0009-0008-6669-2595*

Аннотация

В статье подвергаются анализу состояние финансирования проектов сфер энергетики и наблюдаемые в нем проблемы, процессы развития энергетики, состояние тепловых, ветряных и солнечных электростанций, выявляются их отличия с точки зрения эффективности, а также исследуются альтернативные направления финансирования. Целью исследования является анализ проблем финансирования и устойчивости инфраструктурных проектов в энергетическом секторе.

Ключевые слова: частный сектор, природные энергоресурсы,

энергетика, проекты государственно-частного партнерства, энергоснабжение, потребитель, финансирование, ветроэлектростанция, теплоэлектростанция.

ANALYSIS OF FINANCING ENERGY PROJECTS

Fayziyev Samandar Sobri o'gli

*Department of corporate finance
and securities PhD student*

Tashkent institute of Finance

E-mail: s.fayziyev1229@gmail.com

ORCID: 0009-0008-6669-2595

Abstract

As can be seen from the article which discusses the state of financing projects in the energy sector and the problems observed in it, the development processes of the energy sector in our country, the status of thermal, wind and solar power plants in our country and their difference from each other in terms of their effectiveness, as well as alternative financing directions. The purpose of the study is to analyze the financing and sustainability of infrastructure projects in the energy sector.

Keywords: private sector, natural energy resources, energy, public-private partnership projects, energy supply, consumer, financing, wind power plant, thermal power plant.

Kirish.

Mamlakatimizda energetika sohasiga e'tibor toboro ortib bormoqda, xususan, elektr energiyasiga bo'lgan talab ham borgan sari ko'payib borayotgan ekanligini hisobga olsak, bu sohadagi moliyalashtirishning joriy holatini tahlil qilish zaruriyati dolzarb ekanligini ko'rish mumkin. Kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari, xususan, anomal sovuq havoning ma'lum vaqt saqlanib qolishi energetika tizimidagi muammolarni yaqqol ko'rsatib berdi. Ishonchli energiyadan foydalanish aholining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi uchun muhim ahamiyatga egaligi sababli respublikamizdagi elektr energiya taqchilligi ko'pchilikda tashvishga soldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi 27.03.2019 yildagi PQ-4249-son Qarorida quyidagi holat alohida qayd etilgan: “Elektr energetika tarmog'ining ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlamasdan turib iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat hududlarining sanoat salohiyatini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish, aholi

farovonligini yuksaltirish va hayot sifatini yaxshilashga erishib bo‘lmaydi” [1].

Tabiiy gaz tizimiga tushgan ortiqcha yuklamalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ta‘sir ko‘rsatib, isitish tizimi hamda transport infratuzilmasi kabi aholi uchun muhim bo‘lgan xizmatlarda ma‘lum vaqt davomida uzilishlarga sabab bo‘ldi. Respublikamizdagi, ayniqsa, Toshkent shahri energetika tizimidagi muammolar sabablarini o‘rganib chiqish, vaziyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va energetika tarmog‘i shaharning o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta‘minlash zarur ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu esa mutlaqo yangi bo‘lgan infratuzilmaga sarmoya kiritish, shu bilan birga energiya samaradorligini oshirish, energiya balansini diversifikatsiya qilish va barqaror energiya rivojlanishiga yordam beruvchi amaliy tadbirlarni hamda qoidalarni amalga oshirish kerak ekanligini anglatadi.

Xususiyl sektorini jalb qilish va energetika sohasiga xususiyl investitsiyalarni rag‘batlantirish energetika sohasidagi muammolarni bartaraf etish va yaqin kelajakda barqaror va ishonchli energiya ta‘minotini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu xususiyl kompaniyalarni shamol va quyosh kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish, shuningdek energiya samaradorligini oshiradigan va chiqindilarni kamaytiradigan innovatsion yechimlarni joriyl etishni rag‘batlantirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, davlat manfaatlarini hisobga olgan holda energetika sohasini mas‘uliyatli va shaffof boshqarish va tartibga solishni ta‘minlash muhim. Bu energiya ishlab chiqarish va taqsimlash bo‘yicha aniq standart va qoidalarni belgilashni, shuningdek, sektor hisobdorligini va aholi ehtiyojlarini ta‘minlab beradi. Respublika energetika sohasidagi kuzatilgan muammolarni bartaraf etish iqtisodiy hamda ekologik omillarni hisobga olgan holda ko‘p qirrali yondashuvni talab qilishi aniq. Birgalikda ishlash va energetikani boshqarishda kompleks va barqaror yondashuvni qo‘llash orqali shahar va uning aholisi uchun ishonchli va arzon energiya ta‘minotini yulga qo‘yish, shuningdek, uning uzluksiz rivojlanishi va o‘shishini qo‘llab-quvvatlash lozim.

Adabiyotlar sharhi

Infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish va ularni moliyalshtirishni samarali tashkil etish mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim jarayon hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotchi olimlar Assaf, S. va Al-Hejji o‘zlarining “Yirik infratuzilma loyihalarida kechikish sabablari” nomli ilmiyl ishida infratuzilma loyihalarining o‘z vaqtida moliyalashtirilmasligiga ta‘sir qilgan sabablarni va ularning oqibatlarini bir nechta misollarda ko‘rsatib o‘tgan [3].

Chan, Albert P. C., Chan, Daniel W. M., Fan, Linda C. N., Lam, Patrick T. I.

& Yeung, John F. Y. kabi olimlar infratuzilma loyihalari tahlilini amalga oshirganlar, shuningdek, davlat – xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalarining foydali jihatlarini, mintaqadagi shu sohada amalga oshirilayotgan moliyalashtirish jarayonlarini atroflicha tahlil qilishgan [2]. Ular o‘z tadqiqot ishlarida korporativ energetika sohasi bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirishning amaldagi holatini rivojlantirish iqtisodiyotga, umuman jamiyatga nima berishini ilmiy baholashgan. Shuningdek moliyalashtirishda faqat kreditlardan emas, balki boshqa muqobil manbalardan foydalanish samaraliroq natija berish mumkinligi aniqlangan.

Konrad Spang davlat tomonidan infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni Germaniya misolida tadqiq etgan[3]. Germaniyada davlat infratuzilmasini loyihalash va qurish ikki xil fazaga bo‘linadi. Birinchi bosqichda mijoz va dizayner loyihani amalga oshirishni o‘zaro rejalashtirishadi. Keyingisida qurilish amalga oshiriladi. Bunda bir yoki bir nechta pudratchilar ishni bajarishda ishtirok etadi. Bu ikki faza o‘rtasida ma‘lumot almashish xato ekanligini ta‘kidlaydi. Sababi dizayn bosqichidagi rejalashtirish nazariy va amaliy ma‘lumotlarga ega emas. Loyihalashtirish bosqichida, vaqt va xarajat ma‘lumotlari yetishmasligi natijasida butun loyiha bo‘yicha xarajatlarning haddan oshib ketishi sodir bo‘ladi. Demak, loyihalash bosqichida pudratchining bilimlaridan foydalanish kerak. Bu esa, o‘z navbatida, loyihani yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Olim Germaniyada davlat tomonidan moliyalashtiriladigan infratuzilma loyihalari uchun ijro bilimlaridan qanday foydalanish kerakligi va uni amalda qo‘llash xususiyatlariga batafsil to‘xtab o‘tgan.

Energetika sohasidagi loyihalar ko‘p yillik obyektlar bo‘lganligi sababli uning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu sababli ham bosqichma bosqich bu sohadagi loyihalarni xususiy sektor bilan birga moliyalashtirish va zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni zamonning o‘zi taqozo etmoqda. Energetika sohasida aksariyat infratuzilma obyektlari gaz yoki ko‘mirda ishlashi ham soha chuqur o‘zgarishga muhtoj ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish juda muhim sanaladi.

Tahlil va natijalar

Energetika sohasida davlat monopoliyasi raqobat, samaradorlik va innovatsiyalar nuqtai nazaridan muammolarni keltirib chiqaradi. Monopoliya sharoitida raqobat ko‘pincha cheklangan bo‘lib, bu narxlar oshishiga, xizmat ko‘rsatish sifati pasayishiga va iste‘molchilarning cheklangan tanloviga olib keladi. Bundan tashqari, davlat monopoliyasida samaradorlikni oshirish va

xarajatlarni kamaytirish uchun xususiy kompaniya kabi rag‘batlar bo‘lmasligi mumkin, bu ham xizmatlar narxi va sifatiga ta’sir qiladi. Shu bilan birga davlat monopoliyasining istiqbolli afzalliklari ham bor. Masalan, energetika sektori ustidan ko‘proq nazorat va barcha fuqarolarning energiyadan foydalanishini ta’minlashga e’tibor beriladi. Bu, shuningdek, hukumatga energetika sohasini yaxshiroq tartibga solish va milliy ustuvorliklarga mos keladigan ayrim energiya siyosati va tashabbuslarini ilgari surish imkonini berishi ham mumkin.

Davlat monopoliyasini saqlab qolish yoki energetika sektorini xususiy sarmoya va boshqaruvga ochish to‘g‘risidagi qaror murakkab va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan masala bo‘lib, uni mamlakatning o‘ziga xos sharoitlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda sinchkovlik bilan tahlil qilish zarur. Energetika sohasidagi har qanday o‘zgarishlar barcha tomonlar manfaatlarini va tashvishlarini inobatga olgan holda shaffof va maslahat asosida amalga oshirilishi kerak.

1-jadval.

**O‘zbekistondagi sohalar bo‘yicha davlat-xususiy
sheriklik loyihalari***

	Sohalar nomi	Loyihalar soni	Miqdori (mln \$)	Jamiga nisbatan foizda
1.	Energetika	26	9 276	81,5
2.	Kommunal xizmati	3	1 668	14,7
3.	Transport	2	93.9	0,8
4.	Sog‘liqni saqlash	48	76.7	0,7
5.	Irrigatsiya	133	29.4	0,2
6.	Ekologiya	69	117.5	1,03
7.	Ta’lim	67	84.9	0,7
8.	Madaniyat	26	9.3	0,08
9.	IKT	2	20	0,2
10.	Qishloq xo‘jaligi va sanoat	14	5.3	0,05
11.	Huquqni muhofaza qilish	1	3	0,03
12.	Bandlik	2	0.3	0,003
	Jami	393	11 384.3	100.0

* Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik shaklidagi loyihalarning qimati jihatidan oladigan bo‘lsak, 80 foizdan ortiq qismi energetika sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu, albatta, sohada xususiy sektorning o‘rni katta ekanligidan dalolat beradi. Jami 393 ta loyihaning 26 tasi aynan shu sohaga yo‘naltirilmoqda.

Shu o‘rinda boshqa davlatlarning energetika sohasini isloh qilish va xususiylashtirish borasidagi tajribasi va saboqlarini ham hisobga olish lozim. Ba’zi

mamlakatlarda energetika sohasini xususiylashtirish bo‘yicha ijobiy natijalar mavjud, bu esa raqobat kuchayishiga, narxlar pasayishiga va xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanishiga olib keldi. Boshqa tomondan, ba’zi mamlakatlarda energetika sohasiga investitsiyalar qisqarishi va aholining ayrim qatlamlari uchun energiyadan foydalanish qisqarishi kabi salbiy tajribalar mavjud.

Energetika sektori har qanday mamlakat iqtisodiyoti va farovonligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni boshqarish va tartibga solish bilan bog‘liq qarorlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish muhimdir. Masalan, “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati viloyatlardagi “Hududiy elektr tarmoqlari korxonalarini” aksiyadorlik jamiyatlarini xususiy sektorga sotish yoki korporativ boshqaruvga berishi lozim. Xususiy sektorlar uchun faqat HETKdan energiyani sotib olib iste‘molchilarga sotish imkoniyati taklif qilinmoqda. Agar riteyllarda elektr energiyani faqat “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatidan sotib olishdan boshqa chora qolmasa, ular uchun bu bozor qiziq emas. Bunday tuzilma energetika sohasidagi raqobatni cheklashi va iste‘molchilar uchun narxlar oshishiga olib kelishi mumkin. Raqobatbardoshroq va samarali energiya bozorini rivojlantirishga ko‘maklashish uchun mavjud me‘yoriy-huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqish va xususiy sektorning kengroq ishtiroki va raqobatini rag‘batlantiradigan islohotlarni jadallashtirish zarur bo‘ladi. Bu energetika sohasida innovatsiyalar va investitsiyalarni rag‘batlantirishga yordam beradi va iste‘molchilar uchun yaxshi xizmatlar va narxlarni pasaytirishga olib keladi.

1-chizma.

Yevropada liberallashtirilgan elektr energiya bozorida standart kommunikatsiya jarayonlari*



* Internet ma'lumotlaridan fodalangan holda tayyorlangan.

Yuqoridagi chizma ma'lumotlari asosida shuni aytish mumkinki, Iste'molchi

va Elektr energiya yetkazib beruvchi o'rtasida elektr energiya ta'minoti shartnomasi tuzilgan holda, Iste'molchi va Tarmoq operatori o'rtasida tarmoqdan foydalanish shartnomasi tuziladi, shuningdek Elektr energiya yetkazib beruvchi va Tarmoq operatori o'rtasida esa tarmoqdan foydalanish E-hisobi yuritiladi. Germaniyada elektr energiya tovar hisoblanadi. Aksariyat provayderlar bir xil xizmatlarni taqdim etadilar, lekin ularning narxlari farq qilishi mumkin. Germaniyada har bir uy xo'jaligi 100 ga yaqin elektr ta'minotchilaridan birini tanlashi mumkin. Bundan tashqari, butun mamlakat bo'ylab ularning soni 1000 dan ortiq. Shuning uchun kvartirangiz yoki uyingiz uchun yangi energiya kompaniyasini tanlashda, chalkashib ketish mumkin. Germaniyada to'rtta asosiy elektr energiya provayderlari mavjud: E.ON, RWE, EnBW va Vattenfall. Bularga qo'shimcha ravishda Lichtblick, Polarstern, Ostrom, Grünwelt va Greenpeace Energy kabi bir nechta “yashil” yetkazib beruvchilar mavjud. Bundan tashqari, siz past, o'rta va qimmat narxlardagi turli kompaniyalardan birini tanlashingiz mumkin. To'g'ri, ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham elektr energiyasi narxi jahon o'rtacha darajasidan past, bu esa energetika sohasini modernizatsiya qilish va kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi. Elektr ta'minotining ahvolini yaxshilash tariflarni ko'tarish va monopoliyani yo'qotishni talab qiladi. Ammo bu shaffof, adolatli va aholi uchun juda og'ir bo'lmagan tarzda amalga oshirilishi kerak. Differensiallashtirilgan tariflar va boshqa chora-tadbirlar, masalan, kam ta'minlangan uy xo'jaliklari uchun subsidiyalar bu jarayonni boshqarishga yordam beradi.

Elektr narxini oshirish muammoning yagona yechimi emasligini ham tan olish kerak. Hukumat va energetika kompaniyalari energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish va tarmoq infratuzilmasini yaxshilash kabi boshqa yo'llarini ham ko'rib chiqishi kerak. Iqtisodiy va jamoatchilik fikri omillaridan tashqari, energetika sohasini yaxshilashda atrof-muhit va texnologik jihatlar ham hisobga olinishi kerak. Quyosh, shamol va gidroenergetika kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga, qazib olinadigan yoqilg'iga qaramlikni pasaytirishga va energiya xavfsizligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek energiyani saqlash, tarmoqni boshqarishning ilg'or usullari kabi energiya texnologiyalari rivojlanishini kuzatish muhimdir. Ushbu texnologiyalar energiya tizimi samaradorligi va ishonchliligini oshirish, energiya yo'qotishlarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalari tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.


Energetika sohasini takomillashtirishning yana bir muhim jihati aholining energetik ta'lim va xabardorlik darajasini oshirishdan iborat. Bu holat odamlarga

energiyani tejashga, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ularning energiya iste'molining atrof-muhitga ta'siri muhimligini tushunishga yordam beradi.

Normativ-huquqiy bazaga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar shaffof va adolatli bo'lishini hamda barcha tomonlar, jumladan, iste'molchilar, energetika kompaniyalari va hukumat manfaatlarini hisobga olishi ham muhim. Yaxshi ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy baza energetika sektorining jamoat manfaatini ta'minlovchi va iste'molchilar huquqlarini himoya qiladigan tarzda ishlashiga yordam beradi. Respublikadagi energetika inqirozini hal etish ko'p tomonlama yondashuvni talab qiladi. Hukumat muammoni tan olishi va uni elektr energiyasi narxlarini me'yorlashtirish, energetika sohasini monopoliyadan chiqarish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali hal qilishi kerak. Ishonchli va uzluksiz energiya ta'minoti uchun adolatli narx to'lashga tayyor bo'lishida aholining ham o'rni bor. Energetika sohasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun u foydali bo'lishi kerak. Aholiga ta'sirini yumshatish uchun tabaqalashtirilgan tariflar va boshqa choralar joriy etilishi mumkin. Biroq, oxir-oqibat, aholi arzon, ammo ishonchsiz elektr energiyasini tanlashi yoki ishonchli ta'minot uchun biroz ko'proq pul to'lashi kerak bo'ladi. 2023 yilning 16 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti energiya

1-diagramma.

Moliyalashtirilgan yirik davlat-xususiy sheriklik energetika loyihalari



* Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi diagrammadan ko'rish mumkinki, yirik davlat-xususiy sheriklik shaklidagi energetika loyihalarining moliyalashtirish holati keltirilgan. Jami loyihalar soni 19 ta bo'lib, shundan Navoiy, Sirdaryo, Buxoro hamda Toshkent viloyatlariga 3 tadan loyihalar to'g'ri kelgan bo'lsa, Jizzax, Xorazm va

Qoraqalpog’iston Respublikasida 1 tadan energetika loyihalar moliyalashtirilishi rejalashtirilgan. 30 foizdan ortiq mablag’ Sirdaryo viloyatidagi loyihalarni amalga oshirish uchun yo’naltirilgan. Shuningdek Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida har biri uchun 1.4 mlrd dollar bo’lgan yangi loyihalar moliyalashtirilgan. Respublika bo’yicha jami 19 ta loyiha uchun qiymati 7.4 mlrd dollar yo’naltirilgan. Vaqt o’tishi bilan energetika sohasidagi taraqqiyotni kuzatish va baholash muhimdir. Bu takomillashtirish sohasini aniqlashga, siyosiy choralari ta’sirini kuzatishga va energiya ta’limi dasturlari samaradorligini baholashga yordam beradi.

Energetika infratuzilmasiga investitsiyalar energetika sohasini takomillashtirishning yana bir muhim jihati hisoblanadi. Bunga mavjud energetika tizimlarini modernizatsiya qilish, qishloq joylarda elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, energiyaga bo’lgan talabni qondirish uchun yangi energetika infratuzilmasini barpo etish kiradi. Energetika infratuzilmasi loyihalari ish o’rinlarini yaratadi, iqtisodiy o’sishni rag’batlantiradi va energiya xavfsizligini yaxshilaydi. Bundan tashqari, energiyadan foydalanish va sotib olish imkoniyati, ayniqsa zaif va marginal jamoalar uchun hal qilinishi kerak. Energiyadan foydalanish insonning asosiy huquqining, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omilidir. Hukumat va tashkilotlar energiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish uchun birgalikda harakat qilishlari kerak, ayniqsa hozirda energiyadan mahrum.

2-jadval.

Hududlar kesimida energetika loyihalarining moliyalashtirish rejasi

Hududlar	Ishga tushish muddati	Quvvati	Loyiha qiymati (mln \$)	Loyihalar soni	Shundan:		
					Quyosh fotoelektr stansiya	Shamol elektr stansiya	Issiqlik elektr stansiya
Navoiy	2024 y	600 MVt	500	2	1	1	-
Samarqand	2024 y	1 320 MVt	1 100	3	3	-	-
Jizzax	2023 y	220 MVt	190	1	1	-	-
Sirdaryo	2026 y	3 293 MVt	2 800	3	-	-	3
Toshkent vil	2022 y	1 110 MVt	940	4	1	-	3
Buxoro	2024 y	1 520 MVt	1 300	4	1	2	1
Xorazm	2025 y	274 MVt	220	2	1	-	1
Surxondaryo	2025 y	2 017 MVt	1 700	2	1	-	1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2025 y	1 600 MVt	1 400	4	-	4	-
Jami		11 954 MVt	10 148	25	9	7	9

* Minenergy.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda respublikamizda generatsiya quvvatlarini oshirish maqsadida xalqaro kompaniyalar bilan umumiy qiymati 10 mlrd 148 mln dollarga teng, umumiy quvvati 11 954 MVt bo'lgan 25 ta elektr energiyasini sotib olish shartnomalari va investitsiya bitimlari imzolangan. Mazkur bitimlarga ko'ra, 2026-yil yakuniga qadar yurtimizda umumiy quvvati 11 954 MVt bo'lgan 25 ta elektr stansiya (9 ta issiqlik, 9 ta quyosh va 7 ta shamol elektr stansiya) ishga tushiriladi. Bu esa O'zbekistonda amaldagi elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmlarining 60 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, energetika sohasini moliyalashtirish va uni barqarorlashtirish mashaqqatli vazifa bo'lsa-da, davlatning iqtisodiy o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda yangi loyihalarni moliyalashtirish hamda hayotga tadbiq etishning yangi muqobil variantlarini izlab topish zarurati ortib bormoqda. Energetika loyihalarini moliyalashtirishning jaxon tajribasini chuqur o'rganish yangi ekologik toza variantlarni realizatsiya qilinishini tezlashtirish lozim. Davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni moliyalashtirish bu yangi yechim. Yaxlit yondashuvni qo'llash, jamoalar bilan hamkorlik qilish, infratuzilmaga sarmoya kiritish hamda shaffoflik va javobgarlikni rag'batlantirish orqali barcha uchun yorqin energiya kelajagi qurishga erishiladi. Energiya ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlar barbo etish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish bu borada qilinishi kerak bo'lgan eng asosiy ishlar sifatida ko'rilmog'ida. Mamlakat energetika sohasining rivojlanishida, uni o'z vaqtida to'g'ri va samarali moliyalashtirish muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi 27.03.2019 yildagi PQ-4249-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4257083>
2. Chan, Albert P. C., Chan, Daniel W. M., Fan, Linda C. N., Lam, Patrick T. I. & Yeung, John F. Y. (2005). Project Partnering in Hong Kong – A Case Analysis of an Infrastructure Sector Project. Proceedings of the China Institute of Professional Management in Construction of The Architectural Society of China Conference 2005 - Globalization of Construction Industry and Professional Construction Management

3. www.stat.uz
4. https://www.researchgate.net/publication/358085062_Let_Us_Integrate_Self-Organization_and_Stakeholders_into_the_Development_of_Infrastructure_Projects_Because_We_Need_More_Creativity_and_Satisfying_Solutions